



## XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA SOLIQ IMTIYOZLARINI RAG'BATLANTIRISH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

**Akbarov Akmalxon**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

*ORCID: 0009-0004-2876-4333*

*[a.akmalxon.a@gmail.com](mailto:a.akmalxon.a@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola xizmatlar sohasini rivojlantirishda soliq imtiyozlari asosida rag'batlantirish mexanizmini takomillashtirish masalalarini tahlil qiladi. Unda xizmatlar sohasidagi mavjud muammolar aniqlanib, turizm, ta'lim va raqamli xizmatlar yo'nalishlarida soliq rag'batlari bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** xizmatlar sohasi, soliq imtiyozlari, rag'batlantirish, turizm, ta'lim, raqamli xizmatlar.

## СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМА СТИМУЛИРОВАНИЯ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ НА ОСНОВЕ НАЛОГОВЫХ ЛЬГОТ

**Акбаров Акмалхон**

*Ташкентский государственный экономический университет*

**Аннотация.** В данной статье проанализированы вопросы совершенствования механизма стимулирования развития сферы услуг на основе налоговых льгот. В исследовании выявлены существующие проблемы в сфере услуг и разработаны научно обоснованные предложения по усилению налогового стимулирования в направлениях туризма, образования и цифровых услуг.

**Ключевые слова:** сфера услуг, налоговые льготы, стимулирование, туризм, образование, цифровые услуги.

## IMPROVING THE MECHANISM FOR STIMULATING THE DEVELOPMENT OF THE SERVICE SECTOR BASED ON TAX INCENTIVES

**Akbarov Akmalkhon**

*Tashkent State University of Economics*

**Abstract.** This article analyzes the issues of improving the mechanism for stimulating the development of the service sector through tax incentives. The study identifies existing problems in the service sector and develops scientifically grounded proposals to strengthen tax incentives in tourism, education, and digital services.

**Keywords:** service sector, tax incentives, stimulation, tourism, education, digital services.

### **Kirish.**

Mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda xizmatlar sohasi strategik ahamiyatga ega bo'lib, u yalpi ichki mahsulot tarkibida muhim ulushni egallaydi. Rivojlangan davlatlarda xizmatlar sektorining ulushi 65–80 foizni tashkil etayotgan bo'lsa, O'zbekistonda ushbu ko'rsatkich hali to'liq salohiyat darajasiga yetmagan.

Shu bois xizmatlar sohasini rivojlantirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Xususan, Taraqqiyot strategiyasida xizmatlar hajmini keskin oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va hududlar rivojini ta'minlash asosiy vazifalar qatoriga kiritilgan.

Biroq amaldagi soliq imtiyozlari tizimi ayrim kamchiliklarga ega bo'lib, ularning manzilliligi, samaradorligi va tizimliliği yetarli darajada emas. Shu sababli xizmatlar sohasini rivojlantirishda soliq imtiyozlari asosida rag'batlantirish mexanizmini takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda soliqlarning rag'batlantiruvchi funksiyasi iqtisodiyotni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Soliq imtiyozlari olib borilayotgan iqtisodiy siyosatning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. U sohaning inqirozlardan tezroq chiqishga va ijobiy bozor tashqi ta'sirini yaratadigan investitsiyalarni rag'batlantirish uchun ishlatilishi mumkin. Soliq imtiyozlari yordamida tashkilotlarning investitsiya va innovatsion faollik darajasini tartibga solish, shuningdek, aholi bandligini oshirishni rag'batlantirishga turtki bo'ladi.

Xizmatlar sohasini soliq imtiyozlari orqali rag'batlantiruvchi roli ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan o'rganilgan.

Surrey (1973) soliq imtiyozlari deganda "aniq tarmoqlar, faoliyat turlari yoki soliq to'lovchilar guruhlarini foydasiga ishlab chiqilgan soliqlarning me'yoriy tuzilmasidan chetga chiqishlar" tushunilishi kerakligini ta'kidlagan.

Aleksandrov (2007) fikricha, soliq imtiyozi – soliq to'lovchiga (subyektiga) boshqa soliq to'lovchiga nisbatan soliq miqdorini kamaytirish yoki afzallik taqdim etish, deb tushuniladi.

Nezamaykin va Yurzinova (2004) soliq imtiyozlari – "soliq to'lamaslik yoki ularni ozroq miqdorda to'lash imkoniyati" sifatida e'tirof etish holatlari ham mavjud.

Dmitriyeva va Dmitriyev (2005) esa soliq imtiyozi – soliq to'lovchini soliqdan to'liq yoki qisman ozod etilishi, deb hisoblashadi.

Aliyevaning (2005) talqinicha soliq imtiyozi – soliq qonunchiligiga asosan soliq to'lovchilar uchun soliq yukini yengillashtirish imkoniyati (kamaytirish, chegirma, soliq krediti).

Aronov va Kashinlarning (2007) ta'rificha: "soliq imtiyozi – soliq to'lovchiga qonunchilikka asosan soliq summasi va soliq bazasidan chegirma berilishi (ozod etilishi, kechiktirish, soliq krediti, soliq chegirmalari, soliq stavkasini kamaytirish)" lozim.

Malikov (2000) "soliq imtiyozlari – deganda soliq to'lovchining soliq majburiyatlari hajmining to'liq yoki qisman qisqarishi, to'lov muddatining kechiktirilishi yoki orqaga surilishi tushuniladi".

Zavalishina (2005) fikricha, soliq imtiyozi – deganda soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga boshqa soliq to'lovchilar bilan qiyoslaganda soliqlar to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan afzalliklar berilishi, shu jumladan, soliq(yig'im) to'lamaslik yoxud kam hajmda to'lash imkoniyati tushuniladi.

Jo'rayev va boshqalar (2009) soliq imtiyozlari – soliq to'lovchilarga soliqlar bo'yicha turli xil yengilliklar bo'lib, ular vaqtinchalik va doimiy, to'liq yoki qisman va boshqa ko'rinishlarda berilishi mumkin, deb hisoblaydilar.

### Tadqiqot metodologiyasi

O'rganish jarayonida tahlil, statistik ma'lumotlarni solishtirish va taqqoslash usulidan foydalanilgan. Shu bilan birga, ilmiy mushoxada, qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

### Tahlil va natijalar muhokamasi.

Xizmatlar sohasini rivojlantirishda soliq imtiyozlari asosida rag'batlantirish mexanizmini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, amaldagi tizimda bir qator kamchiliklar mavjud. Eng avvalo, soliq imtiyozlarining yetarli darajada manzilli va differensial emasligi ularning iqtisodiy samaradorligini pasaytirmoqda.

Amaliyotda imtiyozlar ko'pincha umumiy tartibda qo'llanilib, hududiy yoki tarmoq xususiyatlari yetarli darajada inobatga olinmasligi kuzatilmoqda. Natijada iqtisodiy jihatdan sust rivojlangan hududlar, xususan, chekka va resurs salohiyati past bo'lgan zonalarda xizmatlar sohasining rivojlanishi kutilgan darajada jadallashmayapti. Bu esa investitsiyalar oqimining asosan rivojlangan hududlarda to'planib qolishiga olib kelmoqda.

Xizmatlar sohasida investitsiyalarni rag'batlantirishga qaratilgan soliq mexanizmlarining yetarli emasligi ham tahlil jarayonida kuzatilmoqda. Ayniqsa, infratuzilma talab qiluvchi sohalarda, jumladan, turizm va ta'lim xizmatlarida boshlang'ich kapital qo'yilmalarining yuqoriligi xususiy investorlar faolligini cheklamoqda.

Shunigdek, xizmatlar sohasida yuqori o'sish sur'atlariga ega bo'lgan raqamli sohada investorlar uchun uzoq muddatli aniq va prognoz qilinadigan soliq rejimining mavjud emasligi investitsiya qarorlarini qabul qilishda noaniqliklarni yuzaga keltirmoqda.

So'nggi yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida aloqa va axborotlashtirish, ta'lim, yashash va ovqatlanish xizmatlari o'rtacha o'sishni kuzatishimiz mumkin.

Quyida keltirilgan 1-jadvalda Respublikamiz hududlar kesimida ko'rsatilgan xizmat turlari bo'yicha tabaqalanishuv darajasi 2023–2024-yillar kesimidagi tahlilni ayrim xizmat turlari, xususan, raqamli xizmatlar, ta'lim xizmatlari hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar misolida ko'rib chiqildi<sup>1</sup>.

2024-yilda O'zbekiston bozor xizmatlari hajmi bo'yicha hududlar kesimida sezilarli tafovut kuzatilgan. Respublika bo'yicha jami xizmatlar hajmi 649,8 trln so'mdan 827,7 trln so'mga oshib, 27,3 foizlik o'sishga erishilgan. Eng yuqori natijalar Toshkent shahri, Samarqand viloyati va Toshkent viloyatlarida qayd etilgan.

Toshkent shahri mamlakat xizmatlar sektorining mutlaq yetakchisi bo'lib, 2024-yilda 305,3 trln so'm hajmda xizmatlar ko'rsatilgan. Bu natija IT, moliya, transport-logistika, ta'lim va turizm xizmatlarining markazlashuvi bilan izohlanadi. Samarqand viloyati 59,6 trln so'm bilan keyingi o'rinni egallagan, bunda turizm, yashash va ovqatlanish xizmatlari hajmining oshgani muhim rol o'ynagan.

Toshkent viloyati esa 56,5 trln so'mlik ko'rsatkich bilan eng kuchli uchtalik hududdan biri hisoblanadi, bu hududda logistika, sanoat infratuzilmalari va ta'lim xizmatlari jadal rivojlanayotganligini ko'rish mumkin.

Eng past natijalar esa Sirdaryo, Jizzax va Navoiy viloyatlarida kuzatilgan. Sirdaryo viloyatida 2024-yilda xizmatlar hajmi atigi 11,8 trln so'mni tashkil etgan bo'lib, bu respublika bo'yicha eng past ko'rsatkichdir. Jizzax viloyatida 19,7 trln so'm, Navoiy viloyatida esa 20,6 trln so'mlik hajm qayd etilgan. Ushbu past ko'rsatkichlar hududlarda xizmatlar sektorining yetarli rivojlanmagani, infratuzilmaning sustligi va agrar tarmoq ulushining yuqoriligi bilan izohlanadi.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi <https://siat.stat.uz/uz/>

**2023–2024-yilda O‘zbekiston hududlarida ko‘rsatilgan xizmat turlari bo‘yicha ma‘lumotlar (trln. so‘m)**

Hududlar	Jami		Shundan							
			Axborot va aloqa sohasidagi xizmatlar		Ta‘lim xizmatlari		Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar		Boshqalar	
			2023	2024	2023	2024	2023	2024	2023	2024
<b>O‘zbekiston Respublikasi</b>	<b>649,8</b>	<b>827,7</b>	<b>39,1</b>	<b>56,8</b>	<b>24,5</b>	<b>32,0</b>	<b>144,2</b>	<b>182,1</b>	<b>442,0</b>	<b>556,8</b>
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	23,0	28,5	0,8	1,0	0,8	0,9	8,7	10,6	12,8	16,1
Andijon viloyati	33,6	42,2	1,1	1,4	1,3	1,6	9,8	12,4	21,4	26,9
Buxoro viloyati	28,2	34,1	0,8	1,0	1,2	1,6	7,9	9,5	18,2	22,0
Jizzax viloyati	16,0	19,7	0,5	0,7	0,5	0,5	4,6	5,7	10,4	12,8
Qashqadaryo viloyati	35,0	43,2	1,1	1,4	1,0	1,3	13,6	16,6	19,3	24,0
Navoiy viloyati	16,2	20,6	0,5	0,7	0,6	0,4	4,4	5,5	10,8	14,0
Namangan viloyati	34,5	43,5	1,0	1,2	1,1	1,6	14,4	18,2	18,0	22,5
Samarqand viloyati	46,6	59,6	1,5	2,0	2,0	2,6	15,6	20,0	27,5	35,0
Surxondaryo viloyati	23,2	28,4	0,9	1,1	0,8	0,8	6,5	8,1	15,0	18,4
Sirdaryo viloyati	9,4	11,8	0,4	0,5	0,3	0,3	2,8	3,6	5,9	7,5
Toshkent viloyati	45,2	56,5	1,3	1,8	1,0	1,7	10,6	13,0	32,3	39,9
Farg‘ona viloyati	44,1	55,5	1,7	2,1	1,5	1,8	14,6	18,3	26,4	33,5
Xorazm viloyati	22,6	28,7	0,7	1,1	0,7	0,9	8,1	10,2	13,0	16,5
Toshkent shahri	230,8	305,3	26,8	40,9	11,8	15,9	22,8	30,4	169,4	218,0

**Manba:** O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi <https://siat.stat.uz/uz/>

Tarmoqlar kesimida esa axborot va aloqa xizmatlari 2023-yilga nisbatan 45 foizga, ta‘lim xizmatlari 30 foizga, yashash va ovqatlanish xizmatlari esa 26 foizga oshgan. Ayniqsa Toshkent shahri axborot xizmatlari (40,9 trln so‘m) va ta‘lim sohasida (11,8 trln so‘m) mutlaq yetakchi bo‘lib, bunda poytaxtda raqamli iqtisodiyot va xususiy ta‘lim tarmoqlarining kengayganini ko‘rish mumkin.

Xizmatlar sohasi mamlakat miqyosida barqaror o‘shishni namoyish qilgan bo‘lsa, hududlar o‘rtasidagi tafovut katta. Poytaxt va turizm markazlari xizmatlar sohasida yuqori sur‘atlarda rivojlanayotgan bir paytda, kichik agrar hududlarda xizmatlar ulushi pastligicha qolmoqda. Shu bois kelgusida Sirdaryo, Jizzax va Navoiy viloyatlarida xizmatlar sektorini kengaytirish uchun infratuzilmaviy va investitsion choralar zarur.

Raqamli xizmatlarni rivojlanishini yanada jadallashtirish, xususan, soha subyektlariga bo‘lgan soliq yukini kamaytirish va ularning faoliyatini rag‘batlantirish maqsadida ularga tegishli soliq imtiyozlari taqdim etilgan. AKT xizmatlarining asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan IT-park rezidentlarning ko‘rsatkichlarini tahlil qilsak.

2020–2024-yillar davomida IT-park faoliyati jadal sur‘atlarda kengaydi va mamlakat raqamli iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan yo‘nalishiga aylandi. Shu davrda IT-park rezidentlarining soni 411 tadan 2 600 taga yetib, qariyb 6,3 baravar o‘sgan.

2020-yilda IT-park rezidentlari tomonidan yaratilgan xizmatlar hajmi 1,0 trln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilda 20,5 trln so‘mga yetgan. 3 yilda xizmatlar hajmi qariyb 20 barobar oshgan.

Shuningdek, O'zbekistondan mahsulot va xizmatlar eksporti geografiyasi sezilarli darajada kengayib, 78 ta mamlakatga yetgan<sup>2</sup>.

Umumiy eksport hajmining deyarli yarmi Shimoliy Amerika mintaqasi mamlakatlariga 45 % to'g'ri keladi, xizmatlar va mahsulotlarning 21 foizi Yevropa va Buyuk Britaniya mintaqalariga, 27 foizi MDH va Osiyo-Tinch okeani mintaqalariga, 6 foizi esa MENA mamlakatlariga yetkazib berilgan.

2020-yilda IT-parkda 14 ta xorijiy kompaniya faoliyat yuritgan bo'lsa, 2024-yilga kelib ular soni 642 taga yetgan. Bu 45 barobarga yaqin o'sishni anglatadi. Bu O'zbekiston IT sohasi xorijiy investorlarga tobora jozibador bo'layotganidan dalolat beradi. Chet el kompaniyalari, asosan, AQSh, Buyuk Britaniya, BAA va Koreya davlatlaridan kelgan.

Tahliliy yo'nalishlarimizdan biri yashash va ovqatlanish xizmatlarining asosi bo'lgan turistik korxonalar turistlarga o'z xizmatlarini taklif qila turib, ularni dam olishga jalb qiladi. Turistlar dam olishga, ta'tilni tejamli va foydali o'tkazish imkoniga ega bo'ladilar. Yoshlarni qiziqarli sayohatlarga jalb qilish bilan shug'ullanadigan turistik klublarning rivojlanishi sog'lom avlodning shakllanishiga imkoniyat yaratadi. Insonlarning ma'naviy va jismoniy sog'ligi turistik korxonalarining o'z vazifalarini bajarishiga bog'liq bo'ladi. Rivojlangan turistik industriyaning mavjudligi ishsizlik muammosini hal etadi. Turizm ko'p mehnat talab qiladigan, xarajatli tarmoqlardan biri hisoblanadi.

Shu sababli Respublikamizda turizmning rivojlanishi ishsizlikni kamaytiradi. Xalqaro turistik tashkilot ma'lumotlariga ko'ra dunyodagi har 15 ish joyi turistik biznesga to'g'ri keladi. Shu sababli muhim taraqqiyot yo'nalishi sifatida e'tirof etilgan turizm aholi turmush darajasining oshishiga ta'sir ko'rsatadi. Turizm xizmatlariga boshqa tarmoqlarga qaraganda yuqori haq to'lanadi.

Shunday qilib, turizmni rivojlantirish afzalliklariga hududga sarmoya, shu jumladan, chet el kapitali oqimi, yalpi ichki mahsulotning oshishi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi, investitsiyalar, shu jumladan, chet el investitsiyalarining jalb qilinishi, davlat budjetiga soliq tushumlarining oshishi kiradi.

2-jadvaldagi ma'lumotlarni umumiy tahlil qilganda, ikkita asosiy davrni ajratib ko'rsatish mumkin:

2019–2021-yillar (Pandemiya ta'siri) COVID-19 pandemiyasi sababli chegaralarning yopilishi natijasida 2020-yilda xorijiy turistlar soni 2019-yilga nisbatan 77,6 foizga, turizm xizmatlari eksporti esa 80,5 foizga keskin kamaygan.

## 2-jadval

### 2019–2024-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasi ko'rsatkichlari

T/r	Ko'rsatkichlar	Yillar					
		2019	2020	2021	2022	2023	2024
1.	O'zbekistonga tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni (mln kishi)	6,7	1,5	1,9	5,2	6,6	7,9
2.	Turizm xizmatlarining eksporti (mln AQSh dollari)	1 313	255,8	422,1	1 609,8	2 143,1	3 385,1
3.	Dam olish tashkilotlari va turistik bazalari obyektlari soni	298	277	132	163	172	219

*Manba:* O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi <https://siat.stat.uz/uz/>

2022–2024-yillar – (Tiklanish davri) 2022-yildan boshlab sohada juda tez tiklanish kuzatilgan. Ayniqsa, 2024-yilga kelib aksariyat ko'rsatkichlar pandemiyadan oldingi 2019-yil

<sup>2</sup> It-parkning rasmiy sahifasi. <https://it-park.uz/uz/itpark/news/o-zbekistondan-eksport-geografiyasi-78-mamlakatga-kengaydi-3-chorak-yakunlari>

darajasiga nafaqat yetib, balki undan oshib ham ketgan. Bu, o'z navbatida, hukumat tomonidan sohani qo'llab-quvvatlash uchun ko'rilgan chora-tadbirlar, jumladan, soliq imtiyozlari samara berganidan dalolat beradi. 2019-yilda 6,7 mln kishini tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda 7,9 mln kishiga yetib, to'liq tiklandi.

Turizm xizmatlari eksporti 2019-yilda 1 313,0 mln AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 1 609 mln AQSh dollariga, 2023-yilda esa 2 143,0 mln AQSh dollariga va 2024-yilda esa 3 385,1 mln AQSh dollariga yetgan. Ushbu holat, turizm infratuzilmasining rivojlanishi va O'zbekistonning yuqori daromadli sayyohlar uchun jozibadorligi ortganini, qimmatroq va sifatli xizmatlar taklif etila boshlanganini bildiradi.

Dam olish tashkilotlari va turistik bazalari obyektlari soni 2019-yildagi 298 tadan 2024-yilda 219 tagacha (26 foizga) kamaygan.

Qisqacha 2-jadval bo'yicha quyidagicha xulosa qilishimiz mumkinki, soliq imtiyozlari tadbirkorlarning ixtiyorida ko'proq mablag' qoldirib, uni biznesni kengaytirish, xizmatlar sifatini oshirish va yangi ish o'rinlari yaratishga yo'naltirish imkonini bergan, inqiroz davrida korxonalarining "suvda qolishiga" va bankrotlikka uchramasligiga yordam bergan va sohaga yangi investorlarni jalb qilishda muhim rol o'ynagan.

Nodavlat ta'lim sektori O'zbekistonda eng jadal rivojlanayotgan ijtimoiy xizmat yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. 3-jadvaldagi raqamlar buni yaqqol isbotlaydi. Davlat ta'lim tizimidagi o'sish asosan demografik omillar bilan bog'liq bo'lsa, nodavlat sektordagi o'sish bu davlat siyosati, bozor talabi va investitsion jozibadorlik natijasidir.

Nodavlat maktablar soni 2020-yildagi 102 tadan 2024-yilga kelib 455 taga yetgan. Bu 4 yil ichida 4,5 barobar o'sish degani. Nodavlat maktablar o'quvchilari soni esa 2020-yildagi 27,0 ming nafardan 2024-yilda 112,1 ming nafarga yetgan. Bu esa 4,15 barobar o'sgan.

2020-yilda nodavlat maktablar umumiy maktablarning atigi 1 %ini tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 4,16 foizga yetgan. 2020-yilda o'quvchilarning 0,43 %i nodavlat maktablarda o'qigan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 1,66 foizga yetgan.

### 3-jadval

#### 2020–2024-yillarda nodavlat umumta'lim maktablarining ko'rsatkichlari

T/r	Ko'rsatkichlar nomi	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil
1.	Respublikadigi davlat va nodavlat maktablar soni	10181	10289	10522	10750	10943
1.1.	Shundan, nodavlat	102	135	194	293	455
2.	O'quvchilar soni (ming)	6 287,9	6 304,6	6 461,7	6 645,1	6 766,3
2.1.	Shundan, 7 yoshli (ming)	603,1	643,0	652,0	702,0	705,0
2.2.	Shundan, nodavlat (ming)	27,0	30,6	46,0	64,0	112,1

**Manba:** O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi <https://siat.stat.uz/uz/>

O'zbekistonda har yili maktabga qadam qo'yayotgan 7 yoshli o'quvchilar soni muntazam oshib bormoqda (masalan, 2022-yilda 652,0 ming, 2023-yilda 702,0 ming, 2024-yilda esa 705,0 ming). Bu demografik to'lqin davlat maktablarining infratuzilmasiga juda katta bosim yuklaydi. Davlat budjeti bunday ulkan talabni qondirish uchun yetarlicha yangi maktablarni qisqa muddatda qura olmasligi mumkin.

Shu sababli eng oqilona yo'l xususiy sektorni ushbu jarayonga jalb qilishdir. Bu jarayonlarda xususiy sektorni faol ishtirok etishi uchun ularga soliq imtiyozlarini taqdim qilish maqsadga muvofiq.

### **Xulosa va takliflar.**

O'tkazilgan tadqiqotlar xizmatlar sohasini rivojlantirishda soliq imtiyozlari muhim rag'batlantiruvchi vosita ekanligini ko'rsatdi. So'nggi yillarda xizmatlar sektori barqaror o'sish sur'atlarini namoyon etgan bo'lsa-da, hududlar va tarmoqlar kesimida sezilarli nomutanosibliklar saqlanib qolmoqda. Xususan, xizmatlar hajmi yuqori darajada markazlashgan bo'lib, Toshkent shahri va ayrim rivojlangan hududlar yetakchi o'rinni egallagan, chekka hududlarda esa xizmatlar sohasi rivoji pastligicha qolmoqda.

Shu bilan birga, tahlillar shuni ko'rsatdiki, soliq imtiyozlarining amaldagi tizimi yetarli darajada differensial emasligi, ularning natijaviy ko'rsatkichlarga bog'lanmaganligi va investitsion rag'batlantirish funksiyasining to'liq ishlamayotganligi xizmatlar sohasining mavjud salohiyatidan to'liq foydalanishga to'sqinlik qilmoqda.

Mazkur muammolarni bartaraf etish hamda xizmatlar sohasini yanada rivojlantirish maqsadida quyidagi ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqildi:

Birinchi, iqtisodiy jihatdan sust rivojlangan hududlarda turizm infratuzilmasini rivojlantirish uchun rekreatsion obyektlar, kurort zonalar va tematik obyektlar tashkil etuvchi tadbirkorlik subyektlari uchun foyda solig'i hamda yer solig'i stavkalarini uch yil muddatga kamaytirish hamda cho'l hududlarida tematik xiyobonlarni tashkil qilgan yuridik shaxslar tematik xiyobonlar foydalanishga topshirilgan kundan e'tiboran 3 yil davomida yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini ushbu soliqlar bo'yicha belgilangan soliq stavkalariga nisbatan ellik foizga kamaytirilgan soliq stavkalari qo'llash orqali investitsiya faolligini oshirish mumkin.

Ikkinchi, xizmatlar sohasining nodavlat umumta'lim yo'nalishida ham investitsiyalarni rag'batlantirish mexanizmlarini kuchaytirish zarur. Shu maqsadda nodavlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining faoliyatini yanada kengaytirish va qo'llab-quvvatlash uchun yuridik shaxslarga o'z mablag'lari hisobidan nodavlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari binolarini qurish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarning foyda solig'ini hisoblashda 2 yil davomida teng ulushlarda chegirib tashlash huquqi berilishi.

Uchinchi, raqamli xizmatlar sektorida barqaror va uzoq muddatli soliq muhitini shakllantirish zarur uchun Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki rezidentlariga barcha turdagi soliqlarni (bundan qo'shilgan qiymat solig'i mustasno) to'lashdan 2040-yil 1-yanvarga qadar bo'lgan davrgacha ozod qilish orqali yuqori texnologiyali xizmatlar eksportini oshirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va milliy IT sektor raqobatbardoshligini kuchaytirish mumkin.

To'rtinchi, xizmatlar eksportini rag'batlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining norezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar (bundan O'zbekiston Respublikasi bilan ikkiyoqlama soliq solishning oldini olish to'g'risida bitim tuzgan davlatlarning soliq rezidentlari mustasno) eksport xizmatlari hajmi kalendar yil davomida 10 million AQSh dollaridan oshgan Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki rezidentlariga axborot texnologiyalari sohasidagi xizmatlarni ko'rsatishdan olgan (shu jumladan, royalti to'lanadigan) daromadlari qismida foyda solig'ini to'lashdan 2030-yil 1-yanvarga qadar bo'lgan davrda ozod qilish.

Soliq yukini kamaytirish, maxsus iqtisodiy zonalar yaratish O'zbekistonning mintaqaviy va global raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi va xizmatlar sohasining YAIMdagi ulushini xalqaro darajaga (o'rtacha 60%) yetkazish uchun asos bo'ladi.

**Adabiyotlar / Literature / Reference:**

Jo'rayev A., Toshmatov Sh., Abduraxmonov O. (2009) *Soliqlar va soliqqa tortish. O'quv qo'llanma.* –T.: NORMA. 184-bet.

Malikov T.S. (2000) *Soliqqa tortishning dolzarb masalalari.* –T.: 76-bet.

Stanley S. (1973) *Surrey Pathways to Tax Reform The Concept of Tax Expenditures// BUSINESS & ECONOMICS: Economics: General, 418 p.*

Zavalishina I.A. (2005) *Soliqlar: nazariya va amaliyot. O'quv qo'llanma. T.: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi" nashriyot uyi. -14 b.*

Александров И.М. (2007) *Налоги и налогообложение: Учебник.-7-е. изд., перераб. И доп. - Издательско-торговая корпорация "Дашков и Ко". – 314 с.*

Алиева Б.Х. (2005) *Налоги и налогообложение: Учеб. пособие.- М.: Финансы и статистика. – 61 с.*

Аронов А.В., Кашин В.А. (2007) *Налоги и налогообложение: Учеб. пособие-М.: Магистр. – 52 с.*

Дмитриева Н.Г., Дмитриев Д.Б. (2005) *Налоги и налогообложение: Учебник.-3-е. изд., перераб. И доп. - Ростов н/Д: Феникс. – 18 с.*

Незамайкин В.Н., Юрзинова И.Л. (2004) *Налогообложение юридических и физических лиц. - М.: Экзамен. - с. 44.*